



**TALABANING PEDAGOGIK TASHXISLASH JARAYONIDA
O‘Z HAYOTIY TAJRIBASINI ANGLASH DARAJASINI BAHOLASH
METODIKASI**

<https://doi.org/10.70728/qdpi.v08.i01.061>

Siddiqova Naziraxon Abdumajidovna

Osiyo xalqaro universiteti magistranti

e-mail: siddiqovan@gmail.com

ORCID:0009-0006-2958-3758

Annotatsiya. Ushbu maqolada pedagogik tashxislash jarayonida talabanning o‘z hayotiy tajribasini anglash darajasini baholashga yo‘naltirilgan metodikaning nazariy va metodik asoslari yoritilgan. Shuningdek maqolada, hayotiy tajribani anglash talabanning o‘tmish tajribalarini tahlil qilish, ularni hozirgi faoliyati bilan bog‘lash va kelajakdagi qarorlariga ongli tarzda tatbiq etish qobiliyati sifatida talqin etiladi. Pedagogik tashxislash ushbu jarayonda talabanning reflektiv fikrlashi, o‘z tajribasiga nisbatan tanqidiy munosabati va shaxsiy ma‘no hosil qilish darajasini aniqlovchi muhim ilmiy vosita sifatida qaraladi. Maqolada baholash metodikasi talabanning ichki anglash jarayonlarini aniqlash, shaxsiy rivojlanish ehtiyojlarini belgilash va individual rivojlanish trayektoriyasini asoslashga xizmat qiluvchi tizimli yondashuv sifatida asoslangan.

Kalit so‘zlar: pedagogik tashxislash, hayotiy tajribani anglash, reflektiv fikrlash, talaba shaxsi, shaxsiy ma‘no, o‘zini anglash darajasi, individual rivojlanish, shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim, tashxisiy baholash, rivojlanish ehtiyojlari

Аннотация. В данной статье раскрываются теоретические и методические основы методики, направленной на оценку уровня осмысления студентом собственного жизненного опыта в процессе педагогической диагностики. В исследовании осмысление жизненного опыта интерпретируется как способность студента анализировать прошлый опыт, соотносить его с текущей деятельностью и осознанно применять при принятии будущих решений. Педагогическая диагностика рассматривается как важный научный инструмент, позволяющий выявить уровень рефлексивного мышления студента, его критическое отношение к собственному опыту и степень формирования личностного смысла. В статье методика оценки обосновывается как системный подход, направленный на выявление внутренних процессов осмысления, определение потребностей личностного развития и обоснование индивидуальной траектории развития.

Ключевые слова: педагогическая диагностика, осмысление жизненного опыта, рефлексивное мышление, личность студента, личностный смысл, уровень самопознания, индивидуальное развитие, личностно-ориентированное обучение, диагностическое оценивание, потребности развития.

Abstract. This article presents the theoretical and methodological foundations of a methodology aimed at assessing the level at which students comprehend their own life experiences within the process of pedagogical diagnostics. In the study, comprehension of life experience is interpreted as a student's ability to analyze past experiences, relate them to current activities, and consciously apply them to future decisions. Pedagogical diagnostics is considered an important scientific tool for identifying students' reflective thinking, critical attitudes toward their own experiences, and the degree of personal meaning construction. The article substantiates the assessment methodology as a systematic approach that serves to identify students' internal processes of understanding, determine personal development needs, and justify individual development trajectories.

Keywords: pedagogical diagnostics, comprehension of life experience, reflective thinking, student personality, personal meaning, level of self-awareness, individual development, learner-centered education, diagnostic assessment, developmental needs.

KIRISH. Bugungi jamiyatda tezkor o‘zgarishlar, murakkab ijtimoiy vaziyatlar va ko‘p variantli tanlovlar shaxsdan o‘z hayotiy tajribasini anglay olish, o‘tmishdagi tajribalarni hozirgi faoliyat bilan bog‘lash hamda kelajakdagi qarorlariga mas‘uliyat bilan tatbiq etishni talab etadi. Talabanning hayotiy tajribasi uning dunyoqarashi, qadriyatlari, qaror qabul qilish mantiqi va o‘zini anglash jarayonida shakllanadigan murakkab tizimdir. Ushbu tajribani anglash darajasi talabanning o‘quv faoliyatiga, kasbiy o‘sishiga va shaxsiy rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Amaliyotda ko‘pincha ta’lim natijalari tashqi ko‘rsatkichlar orqali baholanib, talabanning ichki anglash jarayonlari, reflektiv faoliyati va hayotiy tajribani idrok etish darajasi yetarli darajada hisobga olinmaydi. Bu holat shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni to‘liq amalga oshirishda muayyan cheklovlarni yuzaga keltiradi.

Muammoni hal etishda pedagogik tashxislash muhim ilmiy-amaliy vosita sifatida namoyon bo‘ladi. “Pedagogik tashxislash shaxsning rivojlanish darajasi va individual imkoniyatlarini aniqlashga xizmat qiluvchi ilmiy jarayon bo‘lib, u ta’limni individuallashtirishning muhim asosini tashkil etadi”[1]. Pedagogik tashxislash jarayonida talabanning o‘z hayotiy tajribasini qay darajada anglay olishi, uni hozirgi faoliyatiga va kelajakdagi qarorlariga qanday tatbiq etayotgani aniqlanishi mumkin. Hayotiy tajribani anglash darajasini baholashga yo‘naltirilgan metodikani ishlab chiqish va ilmiy asoslash ta’lim nazariyasi va amaliyoti uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Hayotiy tajribani anglash darajasini baholash talabanning shaxsiy rivojlanish ehtiyojlarini aniqlash, individual rivojlanish trayektoriyasini belgilash va ta’lim jarayonini mazmunan boyitish imkonini beradi. Pedagogik tashxislashga asoslangan bunday metodika talabanning o‘zini anglashini

chuqurlashtiradi, reflektiv faoliyatini faollashtiradi va uni o‘z rivojlanishining faol subyektiga aylantiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Pedagogik tashxislash jarayonida talabaning o‘z hayotiy tajribasini anglash darajasini baholash masalasi zamonaviy pedagogika va ta’lim psixologiyasida shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvning muhim tarkibiy qismi sifatida talqin qilinmoqda. Hayotiy tajriba tushunchasi shaxsning individual yashash jarayonida orttirgan ijtimoiy, madaniy, emotsional va kognitiv tajribalarining yig‘indisi sifatida izohlanadi. Ushbu tajriba shaxs tomonidan passiv ravishda yig‘iladigan ma’lumotlar majmui emas, balki ongli idrok, tahlil va refleksiya orqali ma’nolashadigan jarayon sifatida talqin qilinadi. “Talabaning hayotiy tajribasini tahlil qilish va umumlashtirish qobiliyati uning kasbiy va shaxsiy kamolotiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi”[2]. Talabaning o‘z tajribasini anglash darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, u o‘qitish jarayonida berilayotgan bilimlarni shaxsiy maqsadlari, ehtiyojlari va hayotiy rejalari bilan shunchalik samarali bog‘lay oladi.

Shaxs o‘zining faoliyati, kechinmalari va tajribalarini tahlil qilishi, ularning sabab-oqibat aloqalarini aniqlashi va kelajakdagi harakatlarni ongli rejalashtirish imkonini beradi. Reflektiv yondashuv talabaning passiv bilim oluvchidan faol subyektga aylanishini ta’minlaydigan mexanizm sifatida talqin qilinadi. “Talabaning o‘z hayotiy tajribasini anglash darajasi uning reflektiv fikrlashi va shaxsiy rivojlanish trayektoriyasini belgilashda muhim ko‘rsatkich hisoblanadi”[3]. Hayotiy tajriba subyektiv hodisa bo‘lganligi sababli, uni faqat test yoki standartlashtirilgan o‘lchovlar orqali aniqlash yetarli emas. Pedagogik tashxislash jarayonida talabaning o‘z hayotiy tajribasini anglash darajasini baholash uchun ishlab chiqilgan kompleks metodik yondashuv asoslab beriladi.

Talabalarining hayotiy tajribani anglashga oid boshlang‘ich tasavvurlari va reflektiv tayyorgarlik darajasi aniqlanadi. Talabaning hayotiy tajribani anglash darajasi tavsifiy, tahliliy va integrativ darajalar bo‘yicha baholanadi. “Talabaning kasbiy va shaxsiy rivojlanishi uning o‘z tajribasini tahlil qilishi va undan ongli xulosa chiqara olish qobiliyatiga bog‘liq bo‘ladi”[4]. Integrativ darajada esa talaba hayotiy tajribani o‘z shaxsiy rivojlanish maqsadlari, kasbiy yo‘nalishi va kelajak rejalari bilan uyg‘unlashtira oladi.

NATIJALAR

Talabalar hayotiy tajribani anglash darajasi bo‘yicha shartli ravishda bir necha sifat jihatidan farqlanuvchi holatlarda namoyon bo‘ldi. Ayrim talabalar o‘z o‘tmish tajribalarini aniq eslab, ularni hozirgi o‘quv faoliyati bilan bog‘lay olishi va kelajakdagi qarorlariga ongli ravishda tatbiq etish qobiliyatiga ega ekanligini ko‘rsatdi. Bunday talabalar reflektiv savollarga chuqur va asosli javoblar berib, o‘z tajribasidan xulosa chiqarish hamda uni rivojlanish manbai sifatida ko‘rish tendensiyasini namoyon etdi. Talabalar hayotiy tajribani anglashda qiyinchiliklarga duch kelayotganini ham ko‘rsatdi.

Quyidagi mualliflik metodikasi yuqoridagi pedagogik muammo doirasida ishlab chiqilgan:

“Reflektiv diagnostika” metodi

Metodikamiz talabaning shaxsiy rivojlanish trayektoriyasini refleksiya chuqurligi va qarorlar taraqqiyoti asosida aniqlashtirishga qaratilgan. Ushbu metodika talaba o‘zining rivojlanishini qanday anglashi, qanday izohlashi va qan tarzda o‘zgartira olishiga xizmat qiladi.

Talabalarga quyidagi kabi pedagogic vaziyat taqdim etiladi.

“Universitetning 2-bosqich talabasi pedagogika fanidan amaliy mashg‘ulot davomida kichik guruh bilan ishlash jarayonida passivlik ko‘rsatmoqda. Mashg‘ulotdan so‘ng aniqlanishicha, talaba 1-bosqichda jamoaviy ishlarda yetarli tayyorgarlikka ega bo‘lmagani, o‘z fikrini ochiq ifodalashda qiyinchilikka duch kelgani sababli baholashda past natijalar olgan. Bu holat unda ishonchsizlikni shakllantirgan.

Hozirgi paytda talaba nazariy bilimlarni yaxshi o‘zlashtirayotgan bo‘lsa ham amaliy faoliyatda tashabbus ko‘rsatmayapti, o‘z imkoniyatlarini to‘liq namoyon eta olmayapti. O‘qituvchi unga kelgusida pedagogik faoliyatda muvaffaqiyatli bo‘lish uchun kommunikativ va refleksiv kompetensiyalar muhimligini tushuntirdi.

Savol: talaba kelajakda malakali pedagog sifatida shakllana oladimi?

Ushbu vaziyatda talaba o‘zining o‘tmishdagi tajribalarini va xatolarini tanqidiy tahlil qilishi, hozirda o‘zida mavjud bilim. malaka va ko‘nikmalardan foydalanishni bilishi hamda kelgusi faoliyatida shaxsiy trayektoriyasini ongli ravishda rejalashtirishi talab etiladi. Bu esa, talabaning refleksiya asosida o‘zining shaxsiy trayektoriyasini qaytadan ko‘rib chiqishga majbur qiladi.

Pedagog bu mashg‘ulotni o‘tkazganda talaba dastavval o‘zi ilgari, hozir tanlagan va kelajakda tanlashi mumkin bo‘lgan yo‘llar va qarorlarni sabablarini, qaysi omillar ta’sir etganligini izohlaydi. Bu jarayon pedagogning o‘z zimmasida qanday mas’uliyat mavjudligini talabaga ko‘rsatib beradi.

Mashg‘ulotda qatnashgan talabalar ichida o‘z faoliyatini tahlil qila oladigan, tajribadan xulosa chiqaradigan va kelajak rivojlanishini ongli ravishda loyihalay oladiganlari reflektiv-rivojlanuvchi trayektoriya egasi sifatida aniqlanadi. Bizning tavsiya bergan ushbu metodimiz reflektiv mashqlar orqali talabaning shaxsiy rivojlanishini aniqlash bilan birga, uni rivojlantirishga xizmat qiladi.

“Konstruksiya” metodi

Bu metodikamizda talabalar o‘zlashtirayotgan pedagogik bilimlarini hayotiy real vaziyatlarda qo‘llashni o‘rganadilar. Bu metodni metodik va pedagogik fanlarning har qaysi birida qo‘llashimiz mumkin. Talabalarga nazariy ma’lumotlar beriladi va quyidagi jadvalni to‘ldirishlari aytiladi.

Ta’limda refleksiya o‘rganish samaradorligini oshiradi
Refleksiya — bu o‘quvchi yoki talabaning o‘z faoliyati, xatolari, yutuqlari va o‘rganish jarayonini ongli ravishda tahlil qilishi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, refleksiyaga asoslangan ta’lim jarayoni bilimning yuzaki emas, chuqur va barqaror o‘zlashtirilishini ta’minlaydi.

•Hayotda qayerda qo‘llanadi?

•Qay darajada muhim?

So‘rovlarga binoan talabalar jadvalni quyidagicha to‘ldirishlari mumkin.

Ta’limda refleksiya o‘rganish samaradorligini oshiradi
Refleksiya — bu o‘quvchi yoki talabaning o‘z faoliyati, xatolari, yutuqlari va o‘rganish jarayonini ongli ravishda tahlil qilishi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, refleksiyaga asoslangan ta’lim jarayoni bilimning yuzaki emas, chuqur va barqaror o‘zlashtirilishini ta’minlaydi.

•Hayotda qayerda qo‘llanadi?

- 1. Oliy ta’limda seminar, amaliy mashg‘ulot, pedagogik amaliyot yakunida;
- 2. Maktabda dars oxiridagi savollar orqali;
- 3. Kasbiy faoliyatda o‘qituvchining darsdan keyingi tahlilida;
- 4 Kundalik hayotda shaxsiy qarorlar va xatti-harakatlarni baholashda.

•Qay darajada muhim?

- Refleksiya shaxsni xatodan o‘rganishga va passiv ijrochidan ongli rivojlanayotgan subyektga aylantiradi. Refleksiya zamonaviy pedagogikaning markaziy mexanizmlaridan biridir.

Ushbu metod talabalarda pedagogik bilimlarni real hayotga tadbiq etishni rivojlantiradi. Talaba bu topshiriq orqali ongida ma’no konstruktorlarini yaratadi. Hozir olayotgan bilimi hayotida qachon ahamiyatli bo‘lishi haqida fikr yuritadi. Javoblar o‘qituvchi ko‘magida tahlil qilinadi. Bu orqali talaba o‘zining shaxsiy rivojlanish trayektoriyasini belgilab, kompetensiyadan trayektoriyaga , baholashdan anglashga va tashxisdan rivojlanishni loyihalashga o‘tishni ta’minlaydi.

Hayotiy tajribani anglash darajasi talabaning o‘zini anglash darajasi bilan bevosita bog‘liqdir. O‘zini anglash darajasi yuqori bo‘lgan talabalar hayotiy tajribani tahlil qilishda chuqurroq refleksiya ko‘rsatib, o‘z xatti-harakatlari va qarorlariga tanqidiy yondashgan. Bu talabalar o‘z tajribasini shaxsiy rivojlanish omili sifatida anglab, undan kelajakdagi faoliyatini rejalashtirishda foydalanishga intilgan. “Ta’lim jarayonida shaxsning o‘zini anglash darajasi uning mustaqil qaror qabul qilish va mas’uliyatli subyekt sifatida shakllanishiga zamin yaratadi”[5]. Pedagogik tashxislash jarayonida talabaning o‘z hayotiy

tajribasini anglash darajasini baholash metodikasi shaxsiy rivojlanishni aniqlashda yuqori ilmiy-amaliy ahamiyatga ega ekanini tasdiqlaydi.

MUHOKAMA

Talabaning hayotiy tajribani anglash darajasi uning ta'lim jarayonidagi faolligi, reflektiv fikrlashi va shaxsiy rivojlanish yo'nalishini belgilashda yetakchi indikatorlardan biri ekanini tasdiqlaydi. Talabaning hayotiy tajribani anglash darajasi turlicha namoyon bo'ladi va u faqat bilim yoki xotira darajasiga bog'liq emas. Talabaning reflektiv tayyorgarligi, o'z faoliyatiga tanqidiy yondashuvi va shaxsiy tajribani umumlashtirish qobiliyati bilan bevosita aloqador. Pedagogik tashxislashda an'anaviy test va yopiq savollarga tayanish talabaning ichki kechinmalari va hayotiy tajribasini anglash darajasini to'liq ochib bera olmaydi. Talaba o'z boshidan kechirgan voqealarni ketma-ket bayon qila olsa-da, ularning shaxsiy rivojlanishiga ta'sirini yetarli darajada anglab yetmaydi. Tahliliy darajada talaba hayotiy voqealarning sabab-oqibat bog'liqligini tushuntira boshlaydi, o'z xatti-harakatlariga baho beradi.

Integrativ darajada talaba hayotiy tajribani o'zining kasbiy maqsadlari, shaxsiy qadriyatlari va kelajak rejalari bilan uyg'unlashtira oladi. Pedagogik tashxislash jarayonining o'zi talaba uchun rivojlantiruvchi tajribaga aylanadi. Talabalar reflektiv topshiriqlar orqali o'z hayotiy tajribalarini qayta ko'rib chiqadi, ilgari e'tibor bermagan jihatlarni anglaydi va o'z faoliyatiga nisbatan ongli munosabat shakllantira boshlaydi. Bu holat pedagogik tashxislashning yashirin rivojlantiruvchi funksiyasini ochib beradi.

XULOSA

Hayotiy tajribani anglash talabaning shaxsiy rivojlanishida markaziy o'rin tutuvchi omil ekanligi, u nafaqat o'tmish voqealarini eslab qolish, balki ularni tahlil qilish, hozirgi faoliyat bilan bog'lash va kelajakdagi qarorlariga ongli ravishda tatbiq etish qobiliyatini o'z ichiga olishi aniqlandi. Hayotiy tajribani anglash darajasini baholash talabaning ichki anglash mexanizmlari, reflektiv fikrlashi va shaxsiy ma'no hosil qilish qobiliyati orqali aniqlash imkonini beradi. Talabaning shaxsiy rivojlanish ehtiyojlarini aniqlash va individual rivojlanish trayektoriyasini belgilash uchun ishonchli ilmiy asos yaratadi. Hayotiy tajribani anglash darajasi yuqori bo'lgan talabalar o'z rivojlanish jarayonini ongli ravishda boshqarish, o'z xatti-harakatlari va qarorlarini tahlil qilish hamda kelajak faoliyatini maqsadli rejalashtirishga moyil ekanligi aniqlandi.

Talabaning ichki anglash jarayonlarini dinamik tarzda kuzatish, rivojlanishdagi ijobiy siljishlarni aniqlash va zarur hollarda pedagogik qo'llab-quvvatlash choralarini belgilash imkonini beradi. Pedagogik tashxislash jarayonida talabaning o'z hayotiy tajribasini anglash darajasini baholash oliy ta'lim tizimida shaxsiy rivojlanishni ilmiy asosda boshqarish, reflektiv faoliyatni faollashtirish va ta'lim jarayonini mazmunan boyitish uchun muhim metodologik poydevor hisoblanadi. Talabaning hayotiy tajribasini ta'lim jarayoniga ongli integratsiya qilish, individual rivojlanish trayektoriyalarini asoslash va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALNILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

- 1.Raxmonov, B. (2021). Pedagogik tashxislash nazariyasi. Toshkent: Fan va texnologiya.
- 2.Abdullayeva, M. (2023). Pedagogik refleksiya asoslari. Toshkent: Universitet.
- 3.Qodirova, N. (2022). Ta’limda refleksiya va shaxsiy rivojlanish. Toshkent: Innovatsion ta’lim.
- 4.Schön, D. A. (2019). The reflective practitioner: How professionals think in action. London: Routledge.
- 5.Biesta, G. (2021). Good education in an age of measurement. London: Routledge.